
Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining sessiyasi

Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining navbatdagi XXXXII sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi Farg'ona shahar saylov komissiyasining tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashi sessiyasi raisi O.Qozixonovning mahruzasi eshitildi.

Mahruzada O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2019 yil 20 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanishini e'lon qilish to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqib, mamlakatimizda siyosiy jarayon boshlanganligi, bu galgi saylovning oldingilaridan farqli jihatlari, beshta siyosiy partiya ishtirok etayotgan ushbu muhim jarayon - "Yangi O'zbekiston: yangi saylovlar" shiori ostida o'tkazilishiga alohida ehtibor qaratildi.

Saylovoldi targ'ibot ishlarida, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida belgilangan tartiblarga qat'iy amal qilish, xolislik, shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashda nimalarga ehtibor qaratish lozimligi tushuntirildi, mazkur yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etish yuzasidan taklif, fikr va mulohazalar bildirildi.

Sessiyada xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi har bir saylov okrugiga to'g'ri keladigan saylovchilar normasi hisobga olinib tegishli okruglar tuzish to'g'risida fikrlar bildirildi.

Sessiyada yangi chaqiriq xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi Farg'ona shahar saylov komissiyasi tarkibiga tavsiya etilgan nomzodlar muhokama etilib, bir ovozdan tasdiqlandi.

2019-10-10 14:23:30